



O'tkir Hoshimovning hikoyalaridagi frazeologik birliklar (iboralar talqinida)

ISOQOVA NILUFAR ZIYODULLA QIZI

Termiz davlat universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: **D.A.Ergasheva**

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asr o'zbek adabiyotini yuksaklikka olib chiqqan ijodkorlardan biri O'tkir Hoshimovning hikoyalaridagi frazeologik birliklarning tahlilini keltiramiz.

Kalit so'zlar: leksikologiya, frazeologizm, lingvistik tahlil, leksema, iboralar, dialektizm.

Abstract: In this article, we present an analysis of phraseological units in the stories of O'tkir Hashimov, one of the creators who brought Uzbek literature to the heights in the 20th century.

Key words: lexicology, phraseologism, linguistic analysis, lexeme, expressions, dialecticism.

Frazeologiya tilshunoslikfani bo'limlaridan biri hisoblanadi. Bu bo'lim tilning lug'at tarkibidagi frazemalar haqida ma'lumot beradi. Frazema ko'chma ma'noli turg'un birikmadir. Frazeologiya til hodisasi sifatida lison va nutqqadaxldordir. Birdan ortiq mustaqil leksema ko'rinishining birikuvidan tashkil topgan, obrazli, ma'noviy tabiatga ega bo'lgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi: tepa sochi tikka bo'ldi, sirkasi suv ko'tarmaydiva hokazo. Frazeologiya nazariyasiga dastlab fransuz tilshunosi Sh. Balli asos solgan. Frazeologiyalarning grammatik, semantik, funksional – uslubiy jihatlarini rus



tilshunoslarining tadqiqotlarida ham ko'rish mumkin. Jumladan, V.Vinogradov iboralarni leksik qatlam sifatida ma'no guruhlariga ko'ra tasniflaydi V.Jukov esa frazeologizmlarning kategoriya va ma'nolarini aniqlagan. O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarni Sh.Rahmatullayev, M.Sodiqova, I.Qo'chqortoyev, A.Rafiyevkabi olimlar ishlarida keng o'rganilgan. Olimlar o'rgangan ishlarida frazeologizm masalalari yetarli darajada tahlil qilingan. So'zlashuv nutqida faol foydalaniladigan hamda turli badiiy matnlarda qo'llanilgan frazeologik birliklarga doir misollar orqali o'rganilganligi ahamiyatlidir. Lekin badiiy matnlarda yozuvchi uslubiga oid frazeologik birliklarni o'rganish bilan bog'liq tadqiqotlar olib borish bugungi kundagi muhim ishlardan hisoblanadi. Frazeologizmlar badiiy adabiyotda obrazli va ta'sirchan vosita sifatida qo'llaniladi. Til birligi hisoblangan frazeologizmlarning badiiy matnda tadqiq va tahlil etilishi muhimdir. Frazeologizmlar badiiylilikni ochib beruvchi unsur hisoblanadi. Badiiy nutqqa o'zgacha joziba, ko'tarinki ruh, yengillik baxsh etadi. Adib hikoyalaridagi birikmalarning tahlili quyida keltirilgan:

1. Adabini yemoq-Bittasi o'lsa, boshqalari adabini yeydi.19-b
2. Ahvoli og'ir- Otinoyimning ahvoli og'ir! 44-b
3. Ammamning buzog'i-O'ris xotinlar urush boshlanibdi, deb yig'lagan, men-ammamning buzog'i hayron bo'lgandim. 7-b
4. Anqoning urug'i -Asli-ku,velosiped ham anqoning urug'i-ya!84-b
5. Aqlini tanidi-Aqlimni taniganimdan keyin bilsam, men shirin, juda shirin, beg'ubor tush ko'rayotgan ekanman-u, To'lash bir og'iz gapi bilan ustimdan muzday sovuq suv qo'yib uyg'otib yuborgan ekan. 38-b
6. Aybni ag'darmoq-O'zining kallai saharlab borgani bilinmaydi-yu, aybni qudalarga ag'daryapti. 91-b
7. Aynidi-O'qishdan butunlay aynidi. 64-b
8. Aynib qoldi-Ammam negadir keyin aynib qoldi. 91-b
9. Bir ko'zlab-Ona bechora bir ko'zlab o'g'il o'stiribdi. 51-52-b



10. Bir yostiqa bosh qo‘ygan-Onasi har doim bir gapni qaytarardi: ”Xotiningni xafa qilma, bolam.Umid bilan bir yostiqa bosh qo‘ygan. 54-b
11. Bir og‘iz-Qiziq, endi u Xurshidalarining ko‘chasiga yetguncha bir og‘iz ham gapirmadi. 96-b
12. Boshi osmonga yetdi-Otinoyi bu gapdan boshi osmonga yetdi. 52-b
13. Boshi toshdan bo‘lmoq-“Boshi toshdan bo‘lsin ishqilib.Ko‘pi ketib,oz qoldi”. 72-b
14. Boshini xam qildi-Hotamxasis...-dadam boshini xam qildi. 87-b
15. Boshidan suv o‘girib ichmoq-E, bizning xotinlarni boshidan suv o‘girib ichsang arziydi. 75-76-b
16. Bo‘yniga olmoq-U Anvar kelsa nima qilishini bilmas edi. Albatta, bo‘yniga olmadi. 104-b
17. Bo‘g‘ib tashlamoq-Imperializm malaylari Afg‘oniston Demokratik Respublikasidagi savr inqilobini bo‘g‘ib tashlamoqchi bo‘pti. 72-b
18. Bo‘sh kelmoq-Possha xola baribir bo‘sh kelmadi. 98-b
19. Dili g‘ash-Dilni g‘ash qiluvchi pastak g‘ishtin binolar... 78-b
20. Dimog‘ni yoradi-“Voy-bo‘-o‘! Atirga cho‘milganmi bu xotin, nima balo, dimog‘ni yoradi-ya...” 75-b
21. Diydor ko‘rishmoq-Burni tovuqnikiga o‘xshagani uchun “Minorka”degan laqab orttirgan, maktabni bitirib harbiy bilim yurtiga kirgan,endi senlar bilan yigirma besh yil diydor ko‘risholmayman, deb yig‘lagan Minor... 77-b
22. Dod solmoq-Kelsa xotini, bolalari, onasi dod solib o‘tirishibdi. Hovliga o‘g‘ri tushganini bilib,xotin sho‘rlik dod solibdi.17-b
23. Duch keldi-Sen echki emassanki,duch kelgan odamga yetaklatib yuborsam.Bo‘lmaydi.98-b
24. Erdan chiqdi-Kuyovning opasi nega erdan chiqqan, deb.Gapni kovlasa gap chiqaveradi-da! 92-b
25. Esi ketdi-Hovuch-hovuch dovuchcha yeb esi ketdi boyaqishni. 42-b



26. Esidan chiqmoq-O'sha qish tongi aslo esdan chiqmaydi. 64-b
27. Esini tanimoq-Esini tanib qolgandi. 71-b
28. Es-hushini yig'ib oldi-Ea-hishini yig'ib olguncha, Anvarning ikkinchi xotiniga aylanib qolibdi.102-
29. Gap qistirdi-Ertasiga u uyiga sovchilar ko'p kelayotganini gap orasida qistirib qo'ydi. 98-b
30. Hayron bo'ldi-Xurahida hayron bo'ldi.101-b
31. Hayron bo'pti-Mehmon hayron bo'pti.85-b
32. Hayron qoldi-Baxt degan lazzatli tuyg'u hayotiga shunchalik tez kirib kelganiga ba'zan o'zi ham hayron qolardi. 99-b
33. Hayron qoldi-Mozoristonda to'plangan odamlarni ko'rib hayron qoldim. 87-b
34. Holi-joniga qo'ymoq-O'zi-ku:"Uylanasanmi,yo'qmi?Tanlaganingni ayt"deb To'lqinjonni holijoniga qo'ymadi. 91-b
35. Er-xotin, "yuring biz bilan", deb Otinoyini hol-joniga qo'yishmadi. 53-b
36. Hushidan ketdi-Uxlab qoldimi,hushidan ketdimi, o'zi bilmasdi. 48-b
37. Hushi uchdi-Xurshida boshidan hushi uchib borayotganini his qilib turar,yuragi gursillab urardi.
38. Ikki bukilib-Yigit maykachan yelkasiga yo'l-yo'l dasturxon tashlab olgan, yelkasi aralash gardaniga ortilgan bir qop un zalvari ostida ikki bukilib kelardi. 57-b
39. Ikki oyog'ini bir etikka tiqmoq-Ikkala oyog'ini bir etikka tiqib turib oldi. 98-b
40. Ipidan ignasigacha-Poshsha xola bo'lsa, sovchilar bilan ochilib-sochilib so'rashar, kuyov bo'lmishni ipidan ignasigacha surishtirardi. 92-93-b
41. Ishi tushmoq-"Padariga la'nat tanishlarniyam,notanishlarniyam! Qaysi birining ishi tushsa, darrov "tanish"bo'lib qoladi". 43-b



42. Ichi huvillab qoldi-Anchagami?-Xurshida birdan ichi huvillab qolgandek, eriga termildi. 99-b
43. Jahli chiqdi-"Iye,polvon biz tomonga choptirib yuboribdilar-ku", desa, buvisi yupatadi: "Nevarangiz halidan buyon tortiqilaydi, uyg'onmaganingizdan keyin jahli chiqdida, dadajonisi! 75-b
44. Jirini jirlamoq-Iskandarni o'zing tanladingmi, endi bilib qo'y, shu oilaning jirini jirlaysan. 51-b
45. Jon hovuchlamoq-Siz kechalari ismenda bo'lsangiz. Men uchta jo'ja bilan jonimni hovuchlab o'tirganim yetmaydimi?! 17-b
46. O'zi kechalari smenada bo'lsa, xotini uchta jo'ja bilan jon hovuchlab tong orttirsas, o'g'riga o'ljaning katta-kichigi bormi? 19-b
47. Jon-jonidan o'tib ketdi-Dadasining gapi Gulyaning jon-jonidan o'tib ketdi.53-b
48. Joniga ora kirdi-Onasi yigirma besh yil ishlab, pensiyaga chiqqan, uning nafaqasi Akmalning joniga ora kirib turardi.63-b
49. Joni osmonga chiqmoq-"O'lgan odamning joni osmonga chiqib, yulduzga aylanib qolarmish". 67- b
50. Jonini bermoq-"Nu, pogodi"desa, jonini beradi. 72-b
51. Kuydirib ketmoq-Otasini kuydirib ketgan bole-em! 90-b
52. Kuyib alangasida isinmoq-Keyin kuyib alangasida isinib o'tirmang, ovsinposhsha! 104-b
53. Ko'z yummoq-Ota-onasi allaqachon ko'z yumib ketganini shulardan eshitdi. 25-b
54. Ko'zi tinmoq-Kun botar-botmas ularning elati ko'kalamzor bir yerga chodir tikar, Tirkash ko'katlar ustiga chalqancha tushib olardi-da,childirmaning gumbirlashiga,quvnoq qahqahalarga quloq solib yotar,gulxan atrofida lip-lip aylanayotgan soyalardan ko'zi tinib uxlab qolardi. 26-b
55. Ko'zi ilindi-Tirkash begona uyning guldor qog'oz yopishtirilgan shiftiga tikilib, yota-yota ko'zlari ilindi. 27-b



56. Ko‘zi tushdi-U endi eshik tomon yo‘nalgan edi, xotiniga ko‘zi tushdi. 50-b
57. Ko‘z tegdi-Kelinimga ko‘z tegmasin, deb isiriq tutatgandim. 53-b
58. Ko‘z tikdi-Kelinoyi yoshdan qizargan ko‘zlarini Iskandarga tikdi. 56-b
59. Ko‘zi uchib turibdi“-O‘rgildim! Shapka kiyganlarga ko‘zing uchib turuvdi! 77-b
60. Ko‘z-quloq bo‘lmoq-...Payshanba kuni eshigimiz tagida velosiped jiringlashini kutib, ko‘z-quloq bo‘lib turdim. 86-b
61. Ko‘zdan kechirmoq-Dasta-dasta suratlarni ko‘zdan kechirarkanman, o‘n yil nariga yetti-sakkiz yashar bolaginamga qaytib qolgandek edim. 89-b
62. Ko‘lanka solmoq-Urushning qora qanoti uzoqlab ketgan, erta-indin Gitlarning to‘ng‘iz qo‘pishi ko‘rinib qolgan bo‘lsayam, hamon uning soyasi odamlar boshiga ko‘lanka tashlab turibdi. 14-b
63. Ko‘ngli bo‘sh -Sal g‘iybatchiroq-ku, ammo yaxshi xotin, ko‘ngli bo‘sh.41-b
64. Ko‘ngli o‘ksidi-Ko‘ngli o‘ksiganida, betob bo‘lganida, ilk bor maktabga borganida, maktabni oltin medal bilan bitirganida... 46-b
65. Ko‘nglini yordi-Xullas, Gulyaning o‘zi unga ko‘nglini yordi. 51-b
66. Ko‘ngli uzildi-Iskandar tut panasida turgan tobutni ko‘rib,ko‘ngli uzilib ketdi.58-b
67. Ko‘ngli g‘ash bo‘lmoq- U divanga chalqancha yotgancha shularni o‘ylar, o‘ylagan sayin ko‘ngli g‘ash bo‘lar edi. 62-b
68. Ko‘ngli soviy boshlamoq-O‘qishdan ko‘ngli soviy boshladi. 63-b
69. Ko‘ngli bo‘linmoq-“Yoshsan, mabodo ko‘ngling bo‘linsa... boshqa birovga... mayli... (Kerakmidi shu gap?) 71-b
70. Ko‘ngliga sig‘moq-Bola-chaqadan vaqt orttirib pardozi ko‘ngliga siqqani... 75-b
71. Ko‘ngliga gap keldi-Televizorni shartta o‘chirib qo‘ysang, xotining qizlaringni ko‘ngliga gap kelsa... 76-b
72. Ko‘ngli g‘ash-Ko‘ngli g‘ash, bolam, -dedi to‘satdan. 91-b
73. To‘lqinjonning to‘yi yurishib qolibdi, ovsinjon! Shunaqayu, ko‘nglim g‘ashroq. 104-b
74. Labini tishladi-Kelinoyi titrayotgan labini tishladi. 56-b



75. Oyoq-qo'lini uzatmoq-Shu Iskandarning aqalli bittagina bolasini bag'riga bossa,oyoq-qo'lini bemalol uzatib ketardi.42-b
76. Oyog'i olti,qo'li yetti bo'ldi-Beshik tagida oyog'i olti, qo'li yetti bo'lib xizmat qilib yurgan xotinlar bir-biriga qarab uf tortib qo'yishadi. 81-b
77. Og'iz solmoq-Sizga og'iz solayotganlar tag-zoti ko'rgan odamlar... 47-b
78. Pishiq qilmoq-Ammo ishni pishiq qiladi. 102-b
79. Qaddini g'oz tutdi-Dasturxonchi kampir o'zining shaddodligidan faxrlangandek qaddini g'oz tutib, tavanxonaga kirib ketdi. 86-b
80. Qahri keldi-Xudoni qahri keldi. 48-b
81. Qasam ichdi-Shuning alamiga yana bir qop pul yig'magunimcha qo'ymayman, deb qasam ichgan emish. 85-b
82. Qattiq ushlamoq-Xotin deganni qattiq ushlash kerak-da, bundoq! 53-b
83. Qoni qaynoq-Kim o'zi bu?-dedi Iskandar Vahobovich qoni qaynab. 43-b
84. Qon yig'ladi-Nachora,peshonada bor ekan. Xotini qon-qon yig'ladi. 71-b
85. Qon to'kkan-Uchinchi Ukraina ffontining jangchisi, Vatan uchun qon to'kkan, orden egasi xor bo'ldi, deymen. 73-b
86. Qon yugurgandek bo'ldi-Rahmatillaning yuziga qon yugurgandek bo'ldi. 79-b
87. Qotib qoldi-Akmal seskanib yangasiga qaradi-yu, haykalday qotib qoldi. 69-b
88. Qovog'ini soldiTuzukmi?-dedi u hammasi uchun o'zi aybdorday qovog'ini solib. 16-b
89. Qovog'ini uymoq-Vahima qilma!-dedi Shoikrom qovog'ini uyib. 17-b
90. Qulog'iga o'rnashdi-Faqat ertasiga onasi kuyib yonib aytgan so'zlar qulog'iga o'rnashib qoldi. 48-b
91. Quloq solmoq-"Quloq soladi gapingga!Ichida so'kayotgandir hammasi". 69-b
92. Quloq solmoq-Sen ham arzimga quloq solmasang, lichna Oliy Bosh Qo'mondonning o'ziga arz qilaman", dermish.74-b
93. Qurtdek sanab olmoq-Pattasiz odamni ushlasa jarimani qurtdek sanab oladi. 69-b



94. Qush uyasida ko'rganini qiladi-Sinang, o'rgilay, obdon sinang. Qush uyasida ko'rganini qiladi. 104-b
95. Qo'l siltadi-Yolg'on!-Xurshida qo'l siltadi. 97-b
96. Qo'ltiq lab yurmoq-Shunaqaku,yelkasiga magnitofon osib, chiroyli-chiroyli qizlarni qo'ltiq lab yuradigan qancha. 70-b
97. Qo'yniga qo'l soldi-Burnini torta-torta yig'lagancha ko'ylagining yoqasidan qo'yniga qo'l suqib, eski gazeta qog'oziga o'roqlik allanima chiqardi. 56-b
98. Qo'yniga kirib oldi-To'ng'ich nevarasi (albatta, o'g'il bo'ladi. Rahmatilla azamat yigit) uxlab yotganida qo'yniga kirib oladi. 75-b
99. Siqilib ketdi-Xurshida uch kunda siqilib ketdi. 100-b
100. Sirqirab ketdi-Xayoling'a da'fatan urilgan fikrdan yuragim sirqirab ketdi. 90-b
101. Sukunat cho'kdi-Erta kuz kechasiga xos chuqur sukunat cho'kdi. 67-b
102. Sukunat quyiladi-Faqat onda-sonda bir shamol kelib, olma yaproqlarini duv to'kib ketadi, keyin yana sukut quyiladi. 67-b
103. Sutday to'lin-Akmal shahar chekkasidagi hovlilarning temir darvozasini taqillatganda vaqt allamahal bo'lib qolgan, sutday to'lin oy pastak uy ro'parasidagi olchalarning sarg'aya boshlagan yaproqlarini allalar, mayin shabada esib turardi. 66-b
104. Suyunib ketdi-Akmal bahona loltopilganiga suyunib ketdi. 68-b
105. Tabassum yugurdi -Asqar katta bo'p qolgandir?-dedi u anchadan keyin. Yangasining yuziga tabassum yugurdi. 68-b
106. Tan oldi-Ammo haydovchining mo'ylovi o'ziga juda yarashib tushganini ichida tan oldi.94-b
107. Tikilib yotadi-Akmal onasi bilan Adham akasining o'rtasida ko'rpadan boshini chiqarib, osmonga tikilib yotar, uzoq vaqt uxlay olmay xayol surardi. 67-b
108. Tirnoqqa zor-Bir xil odamlar tirnoqqa zor. 14-b
109. Tinib qoldi-Ovoz pasaya-pasaya tinib qoldi.67-b
110. Tishida tishlamoq-Qora kunlari uchun,ne umidlar bilan tishida tishlab yurgan sigirini



o'g'irlagani uchun, non puli bo'lar deb yetishtirgan mevasidan judo qilayotgani uchun shundoq qasos olsinki, o'sha Xudo bexabarlardan. 19-b

111. Tumshug'ini tagi-Tumshug'ingni tagidan sigiringni olib ketsa-yu, anqayib o'tirsang.16-b

112. Turmush qurdi-Halima turmush quribdi. 38-b

113. Turmush qildi-Yigirma bir yil turmush qilib, bir marta labiga bo'yoq surmadi-ya. 75-b

114. Umrini xazon qilmoq-Yosh umringizni xazon qilmang.47-b

115. Umri o'tmoq-Er-xotinning umri o'tib borardi.54-b

116. Uyqusi o'chmoq-Yo'q, bolam, ovqat kerakmas, -dedi Umri xola shoshilib. -Xayol surib yotib uyqum o'chib ketdi... 15-b

117. Vafot etgan-Akmal ishchi bataloniga ketib, o'sha yerda vafot etgan otasini eslay olmas, ammo onasining bir gapi go'dak xotirasiga o'rnashib qolgan edi. 67-b

118. Bilasiz, indinga oyim vafot etgan kunlariga o'n yil to'ladi. 69-b

119. Xush ko'rmoq-Klara oilasida yolg'iz qizligi uchunmi, kelin bo'lib tushgandayoq ovsinini xush ko'rmagan edi. 61-b

120. Yarq etib qaramoq-Yangasi yarq etib uning yuziga qaradi. 68-b

121. Yelkasiga ildi-Hamidulla xalatni ming mashaqqat bilan yelkasiga ildi. 78-b

122. Yerga yopishmoq-Ukasi sil ekan. Shuning uchun qoldirishgan ekan. Mana, uch oydirki,yerga yopishib yotibdi. 16-b

123. Yer yutgur-Yergina yutgur Teshavoy!

124. Yetti uxlab tushiga kirmoq-Qarang,bir narsa yetti uxlab tushiga kirmabdi. 72-b.

Frazeologizmlarning yuzaga kelishi faqat ma'no hodisasidir.Frazeologizm va so'z bo'lmasa,nutqiy-sintaktik butunlik ham bo'lmaydi.Turli xususiyatlarga ega bo'lgan frazeologizmlar majmuyi tilning frazeologik qatlamini tashkil etadi. Tilning frazeologik qatlami doimiy ravishda yangi frazeologizmlar bilan boyib boradi.Shu bilanbirga xalq tilining taraqqiyot qonunlarini aks ettiradi.Frazeologizmlarni o'qib,o'rganish va ularni tahlil qilish,tasniflash ma'lum.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sayfullayeva R. Mengliyev B.va boshqalar.Hozirgi o'zbek tili.O'quv qo'llanma. –T.: «Fan va texnologiya», 2009. –416 b.
2. Abduazizov A.Til nazriyasiga kirish.T.: 2010. –150 b
3. Yo'ldoshev.B.Hozirgi frazeolog birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari.T.: 2010.
4. Hoshimov O'. Dunyoning ishlari.qissa va hikoyalar / –T.:Yangi asr avlodi, 2018.–336 b.
5. O'tkir Hoshimov.Ikki eshik orasi:roman. –Toshkent:Meriyus, 2017.–544 b.
6. O'tkir Hoshimov. Bahor qaytmaydi:qissa va hikoyalar. –T.: Yangi asr avlodi, 2015. –500 b.
7. O'tkir Hoshimov.Tushda kechgan umrlar / roman / «Abadiy barhayot asarlar»turkumi.– T.: «Ilm-ziyo zakovat», 2019. –240 b.
8. O'tkir Hoshimov. O'zbeklar / hikoyal / «Fan nashriyoti».– T.: «Ilm-ziyo zakovat»,2019. –240 b.